

YOSH OILADAGI OILAVIY MUNOSABATLARNING XUSUSIYATLARI

Muminova Dilnoza Solexovna
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy yosh oila to'g'risidagi umumiy tassavurlar hamda yosh oiladagi er-xotin munosabatlarning psixologik xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yosh oila ,yosh oila turi ,oilga tipologiyasi ,oilaviy munosabatlarni sinovdan o'tkazish .

ОСОБЕННОСТИ СУПРУЖЕСКИХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В МОЛОДОЙ СЕМЬЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье перечислены общие черты современной молодой семьи, а также психологические особенности взаимоотношений пары в молодой семье

Ключевые слова: молодая семья, тип молодой семьи ,типология семей , тестирование семейных отношений .

FEATURES OF MARITAL RELATIONS IN A YOUNG FAMILY

ABSTRACT

The article provides an overview of a young family and the psychological characteristics of the relationship of a young couple.

Keywords: married family, type of recently married family / typology of families / testing of the family relations

Oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnag'ini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa yosh oilalarda ota-onalik ma'suliyatini o'z zimmasiga olib o'zaro munosabatlar tizimini to'g'ri shakllantirish jarayonlarida kuzatiladi.Oila inson uchun asosiy mezonlardan biri bo'lib, u shaxsni shakllantirish, urf-odatlarini takrorlash va saqlash

uchun ideal mikro muhit bo'lib xizmat qiladi. Oiladagi munosabatlarni o'rganish oila institutidagi mavjud muammolarni dolzarblashtiradi, zamonaviy oilaning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirishga yordam beradi va o'rganilayotgan mavzuning etarli darajada ilmiy ishlab chiqilmaganligi tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarni yangicha tahlil qilish imkoniyatini beradi Natijada, er-xotinning oilaviy qadriyatlari ularning nikohdan qoniqishi, mavjud nikohning muvaffaqiyatini baholash, oilaviy munosabatlarning tabiati, er-xotinning bir-birlari haqidagi g'oyalari va ular o'rtasidagi kelishmovchilik to'g'risida keng ma'lumotlar olindi. Yosh oilalarning uchta asosiy turi ularning oila haqidagi umumiy tasavvuriga ko'ra aniqlanadi: an'anaviy, zamonaviy va aralash. Oilaviy markazlarda va yosh oilalarga yordam berish markazlarida faoliyat yuritadigan sotsiologlar va psixologlar uchun qadriyatlarni o'rnatishdagi o'zgarishlar, oiladagi munosabatlarni to'g'irlash, shuningdek, jamiyat uchun oqibatlarni bashorat qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar orttirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;

yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;

o'rta oilaviy hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;

katta oilaviy hayot muddati - 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Yosh oilalarda munosabatlar tizimini tashkillashtirish asosida quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega sifatida izohlanadi.

1. Ikki yoshning bir-birini hurmat qilishi
2. Er-xotin rolidagi o‘zaro bog‘liqlik holati
3. Bir-birini tushunish va qo‘llab quvvatlash asosida oila tizimini shakllantirish
4. Ota-onalik hamda kelin-kiyov ma’suliyatini to‘g‘ri anglash orqali munosabatlarni shakllantirib boorish

Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og‘ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo‘yilganida esa bolaga atrof-muhit va jamoatchilikning ta’siri sezilarli bo‘ladi. Ta’lim muassasalari va mahalla-kuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so‘ngi daqiqasigacha ta’qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma’naviy takomilida ham muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғ‘рисида”ги ПФ-5325-сонли Фармони. <http://lex.uz/docs/3546742>
2. Хамитова З. Х. Молодая семья: специфика, ее социальный статус и проблемы // Вестник научных конференций. — 2016. — № 9–5(13).
3. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С.202-205.
4. Тойирова Л. И., Абдуганиева Д. А. Инновации в образовании: учетом возрастных особенностей обучающихся перспективные этапы развития научных исследований: теория и практика. –2019. – С. 21-23.